

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/07.06.2024. Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

MAXKAMOVA ALIYA SHINIBAEVNA

**EROZIYAGA UCHRAGAN TIPIK BO‘Z TUPROQLARNING
AGROFIZIKAVIY XOSSALARIGA HAMDA G‘O‘ZA HOSILDORLIGIGA
MA‘DANLI VA BIOLOGIK O‘G‘ITLARNING TA‘SIRI**

06.01.03–Agrotuproqshunoslik va agrofizika

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2024

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Махкамова Алиа Шинибаевна

Eroziyaga uchragan tipik bo‘z tuproqlarning agrofizikaviy xossalariga hamda
g‘o‘za hosildorligiga ma‘danli va biologik o‘g‘itlarning ta‘siri 3

Махкамова Алиа Шинибаевна

Влияние минеральных и биологических удобрений на агрофизические
свойства эродированных типичных сероземных почв и урожайность
хлопчатника..... 21

Makhkamova Aliya Shinibayevna

Influence of mineral and biological fertilizers on the agrophysical properties
of eroded typical serozems and cotton yield..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 42

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

MAXKAMOVA ALIYA SHINIBAEVNA

**EROZIYAGA UCHRAGAN TIPIK BO‘Z TUPROQLARNING
AGROFIZIKAVIY XOSSALARIGA HAMDA G‘O‘ZA HOSILDORLIGIGA
MA‘DANLI VA BIOLOGIK O‘G‘ITLARNING TA‘SIRI**

06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Qx557 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «ZiyoNet» axborot ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kamilov Bobir Sultonovich

qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kurvantaev Rahmantoy

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Xaqberdiyev Obid Eshniyazovich

biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «____» _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00; faks: (99871) 260-38-60; e-mail:tuag_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (+99871)246–15–38

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «____» _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil «____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

N.B.Raupova,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

G.S.Sodiqova,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.n., dotsent

M.Saidova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, b.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda «yuvilish va suv eroziyasi ta'sirida buzilgan yerlar 10,9 mln/ga (56 %), shamol ta'sirida yemirilgan yerlar 5,5 mln/ga (28 %), kimyoviy degradatsiyaga (gumus va biogen moddalar kamaygan, sho'rlangan, ifloslangan va boshqalar) uchragan yerlar 2,4 mln/ga (12%), fizik degradatsiyaga uchragan (zichlashgan, botqoqlashgan, cho'kkan va boshqalar) yerlar 0,8 mln/ga (4 %) bo'lib, jami maydon 19,6 ¹mln gektarga tengdir». Shu sababli dunyo mamlakatlarida tabiiy va antropogen omillar ta'sirida degradatsiyaga uchragan yer maydonlarini unumdorligini saqlash, oshirish va meliorativ holatini yaxshilash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dunyoda hozirgi kunda tuproqlarning agrokimyoviy, fizik va kimyoviy xossalari, gumuslilik holati hamda tuproq biologik faolligining tashqi muhit omillari bilan o'zaro bog'liqligini tahlil qilish bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, tuproq degradatsiyasi jarayonlarining dastlabki bosqichini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda aniqlash va tuproq unumdorligini oshirish, organik dehqonchilik ishlarini yuritish, biologik usullar orqali qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hamda sifatli ekologik sof mahsulot yetishtirishga doir ilmiy-amaliy ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda sug'oriladigan yer maydonlarini meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligini saqlash, oshirish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturlari doirasida keng ko'lamli melioratsiya tadbirlari va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-277-son qarori ²hamda 2022-yil 25-martdagi «Paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorlikni oshirish, sug'orishning yangi texnologiyalarini joriy etishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-179-sonli qarorida: tuproq unumdorligini oshirish va eroziyadan muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirganlik uchun soliq imtiyozlari berish kabi muhim vazifalar sifatida belgilab berilgan. Shu sababli mamlakatimizdagi yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish va uning salbiy oqibatlarini yumshatish, hududlarda cho'llanish va qurg'oqchilikning oldini olish, bioxilma-xillikni asrab qolish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash, tuproqlar eroziyasi va uning oqibatlarini yaxshilash ushbu yo'nalishdagi ilg'or ilmiy ishlanmalar va innovatsiyalardan keng foydalanish asosida mintaqalarni barqaror rivojlantirishga erishishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5742-son Farmoni, 2020-yil 18-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligida rivojlantirishini 2020-2030 yillarda mo'ljalangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020 yilda amalga oshirish to'g'risida»gi PQ-

¹ <https://www.fao.org>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-277-son qarori

4575-son qarori, 2021-yil 24-fevraldagi «Qishloq xo'jaligiga mo'ljalangan yerlardan foydalanish va muxofaza qilish nizomini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5006-sonli qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sug'oriladiga tuproqlarning agrokimyoviy, agrofizikaviy xossalari, melioratsiyasi, evolyutsiyasi, tuproqlarni eroziyalanish holati, tuproqlar sifatini baholash, unumdorligini saqlash, tiklash va oshirish bo'yicha O'zbekiston olimlaridan L.T.Tursunov, X.M.Maxsudov, R.Q.Qo'ziev, I.T.Turopov, K.M.Mirzajanav, L.A.Gafurova, Sh.N.Nurmatov, M.M.Toshqo'ziev, R.Qurvantaev, N.Yu.Abduraxmonov, N.B.Raupova, B.S.Kamilov, D.A.Qodirova, N.I.Shadieva va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, biopreparatlar gumat va gumin tutgan o'g'itlardan qishloq xo'jaligida foydalanish borasida xorijlik olimlardan A.Fliessbach, P.Mader, K.Mulongay, O.Grosskinskiy, A.Amberger, F.Kortmann, E.Petzold, F.Petermeise (Germaniya), M.Shizunori, N.Kinsaku, H.Kodzo, N.Yutaka, S.Motohisa (Yaponiya), respublika olimlaridan G.I.Djumaniyazova, N.H.Hakimova, O.V.Myachina, A.T.Aliev, N.X.Usinbaev, A.J.Bairov, D.U.Burxonova, A.A.Musurmonovlarni tadqiqotlarini qayd etish lozim. Biroq, Toshkent vohasining sug'oriladigan yerlari doimiy ravishda dehqonchilikda foydalanib kelishiga qaramasdan Piskent tumanida Angren daryosining III-IV sohil usti terrasasida tarqalgan tuproqlarning irrigatsiya eroziyasi ta'sirida agrokimyoviy xossalari, bilogik faolligi, agrofizikaviy xossalarining o'zgarishiga va unumdorligini oshirish borasida to'laqonli ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalarining QXA-7-073-III «Tuproq mikrobiologik faolligini boshqarish va ekologik holatini yaxshilash orqali tuproq unumdorligini o'simliklar hosildorligini oshirish yo'llarini asoslash» mavzusidagi amaliy loyiha hamda Agrokimyo va tuproqshunoslik va agrokimyo kafedrasidagi "Tog', tog' oldi tuproqlarining ekologik holatini saqlash, tiklash va unumdorligini oshirish yo'llari" mavzusidagi (2016-2020 y.y.) tematik loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Chirchiq-Ohangaron havzasi irrigatsiya eroziyasiga uchragan tipik bo'z tuproqlarining agrofizikaviy xossalari, biologik faolligini aniqlash, hamda eroziyalangan tuproqlar unumdorligini oshirishda ma'danli va biologik o'g'itlarning ta'siriga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Chirchiq-Ohangaron havzasida tarqalgan eroziyaga uchragan sug'oriladigan

tipik bo'z tuproqlarining morfologik, kimyoviy, umumfizikaviy xossalari aniqlash;

tipik bo'z tuproqlarning eroziya jarayonlari ta'siri yuzaga keladigan biologik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni aniqlash;

ma'danli va biologik o'g'itlarning tipik bo'z tuproqlar agrofiziikaviy xolati va biologik faolligiga hamda tuproq unumdorligiga ta'sirini aniqlash;

geoaxborot tizimlaridan foydalangan holda hududda tarqalgan eroziyalangan tipik bo'z tuproqlarning eroziyalanish darajasi, qiyalik ekspozitsiyasi ko'rsatkichlarini tavsiflovchi xaritalar tuzish;

olingan natijalar asosida irrigatsiya eroziyasiga uchragan tipik bo'z tuproqlarning unumdorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent viloyati Piskent tumanida tarqalgan irrigatsiya eroziyasiga uchragan tipik bo'z tuproqlar, Rizokom-1 biopreparati, gumat-Na preparati, organik o'g'itlar, mineral o'g'itlar va go'zaning «Sulton» navi olingan.

Tadqiqotning predmeti tuproqlarning agrofizikaviy xossalari, struktura holati, mikroorganizmlar va fermentlar faolligi, g'o'za o'simligi, eroziyalanish darajasi, tuproq xaritalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitida tuproqshunoslik va mikrobiologiya sohasida umumqabul qilingan standart uslublar asosida olib borilgan, jumladan tuproq tahlillari Ye.V.Arinushkinaning «Руководство по химическому анализу почв» qo'llanmasi bo'yicha, tuproqdagi mikroorganizmlar miqdori D.G.Zvyaginsevning «Tuproq mikrobiologiyasi va bioximiyasi usullari», dala tajribaviy tadqiqotlari «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» bo'yicha, olingan ma'lumotlarning ishonchliligi B.A.Dospexovning «Методы полевого опыта» qo'llanmasi asosida, matematik statistik ishlov berishlar «Microsoft Excel» dasturi yordamida amalga oshirilgan. Distantion ma'lumotlar GAT texnologiyasining ArcGIS Desktop/Workstation, Arc/Info, ArcView va boshqa dasturlari yordamida qayta ishlangan. Shuningdek, piksellarni klassifikatsiya qilish uchun maxsus ERDAS dasturidan, turli mavzudagi mavzuli elektron xaritalar yaratishda 3D Analyst (Surface/Create TIN from Features), Surface/Interpolate Grid lardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sug'oriladigan hududlarda irrigatsiya eroziyasiga uchragan tipik bo'z tuproqlarning morfologik hususiyatlari, agrofizikaviy, agrokimyoviy xossalari, biologik faolligini eroziya ta'sirida o'zgarishi aniqlangan;

ArcGIS dasturi asosida hudud tuproqlarining 1:10000 masshtabli eroziyalanish xarita sxemasi, qiyalik ekspozitsiyasi bo'yicha xaritasi ishlab chiqilgan;

Eroziya darajasiga bog'liq ravishda tuproqlarning biologik faolligi va o'g'itlar orasidagi, hosildorlik va o'g'itlar orasidagi bog'liqlik aniqlangan;

Irrigatsiya eroziyasini bartaraf etish hamda ekinlar hosildorligini oshirishda ma'danli va biologik o'g'itlardan foydalanish sug'oriladigan tipik bo'z

tuproqlarning agrofizikaviy xususiyatlari va biologik faolligini yaxshilashi, tuproq unumdorligini oshirishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Irrigatsiya eroziyasiga uchragan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning unumdorligi va uni oshirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

irrigatsiya eroziyaga uchragan tuproqlarning agrokimyoviy xossalarni yaxshilash, biologik faoligini tiklash, g'o'za ekini o'sib rivojlanishi va hosildorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqilgan;

geoaxborot tizimlaridan foydalangan holda hududda tarqalgan eroziyalangan tipik bo'z tuproqlarning relyef sharoitini va morfometrik ko'rsatkichlarini tasniflovchi (qiyalik ekspozitsiyasi, eroziyalanish darajasi) tematik xaritalar yaratilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot natijalarining aniqligi dalajajriba, laboratoriya, kameral, kartografik, solishtirma uslublarda bajarilganligi, ularni statistik tahlil qilinganligi, olingan natijalarni ilmiy asoslanganligi, amaliyotda isbotlanganligi hamda oxirgi nashr etilgan uslubiy qo'llanmalar asosida bajarilganligi, respublika va xalqaro miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, nufuzli xorijiy va respublika ilmiy jurnallarida chop etilganligi hamda natijalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hududdagi sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning agrofizikaviy xossalari tavsifi, eroziyalanish darajasi, biologik faoligi va tuproqlarda eroziya ta'sirida sodir bo'layotgan jarayonlarning ifodalab berilganligi, unumdorligini tiklash, saqlash va oshirishning ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sug'oriladigan eroziyalangan tipik bo'z tuproqlar uchun tuzilgan tuproqlarning eroziyalanish haritasi hamda g'o'za hosildorligi va tuproq unumdorligini oshirish yo'llariga doir ishlab chiqilgan ma'danli va biologik o'g'itlarni qo'llash samaradorligi bo'yicha amaliy tavsiyalar tuproq unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish, eroziya jarayonlarining oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga yo'naltirilgan chora tadbirlarni belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Toshkent viloyatining irrigatsiya eroziyasiga uchragan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarining unumdorligini oshirish yo'llari bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

«Irrigatsiya eroziyasiga uchragan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning unumdorligi va uni oshirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar» ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 4-may 06/28-28-06/440-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu tavsiyalar Toshkent viloyatining paxta-g'allachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklarida biopreparatlarini va turli o'g'itlarni qo'llash orqali tuproq unumdorligini oshirish uchun qo'llanma sifatida xizmat qilgan;

Tipik bo'z tuproqlar sharoitida ishlab chiqilgan N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀+gumat-Na biopreparatini qo'llashning takomillashtirilgan agrotexnologiyasi Toshkent viloyati

Piskent tumanida 50 gektar maydonda joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 4-may 06/28-28-06/440-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tuproqning haydalma qatlamida gumus miqdori 0,07%, nitrat shakldagi azot 7,3 mg/kg, harakatchan fosfor 5,45 mg/kg ga oshgan va o'rta pishar g'oz Sulton navidan gektaridan qo'shimcha 1,8 s/ga paxta hosili olishga erishilgan.

N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀+Rizokom-1 qo'llashning takomillashtirilgan agrotexnologiyasi Toshkent viloyati Piskent tumani «Ibroxim Zoda Xondamir» fermer xo'jaligida 20 gektar sug'oriladigan yer maydonida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 4-may 06/28-28-06/440-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu takomillashtirilgan texnologiya fermer xo'jaliklarida g'ozadan gektariga 2,3 s/ga qo'shimcha g'oz hosili olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Dala, ishlab chiqarish tajribalari har yili Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va TDA Uning aprotatsiya komissiyasi tomonidan ko'rikdan o'tkazilgan, tadqiqotlar natijalari har yili universitetning Ilmiy kengashlarida muhokama qilingan va 2 ta respublika va 2 xalqaro miqyosdagi o'tkazilgan jami 4 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 10 ta ilmiy ishlar chop ettirilgan, shulardan O'zbekiston respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari bo'yicha asosiy tadqiqot natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shu jumladan 3 tasi respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda shuningdek, 1 ta tavsiyanoma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmetlari tavsiflangan. O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, aprotatsiyada ijobiy baholangan, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va tartibi bo'yicha atroflicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiyotlar sharhi** (Muammoning o'rganilganlik darajasi)" deb nomlangan birinchi bobida eroziya jarayonlari ta'sirida tuproqning agrofizikaviy va biologik holatidagi o'zgarishlarga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlarning umumiy sharhi batafsil yoritilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari asosida tuproqning unumdorlik ko'rsatkichlari, eroziya jarayonlarining unumdorlikka, tuproqning biologik faolligiga, agrofizikaviy xossalriga ta'siri to'g'risidagi adabiyotlar keltirilgan. Adabiyotlar tahlilining yakunida tuproqlarning zonallik tiplari bo'yicha asosiy xossa-xususiyatlari, ayrim fizik-kimyoviy

xususiyatlari, biologik faolligi va ularning eroziya jarayonlarining tasirida o'zgarishi mukammal o'rganilmaganligi sababli ushbu muammoni o'rganish zarurligi xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o'tkazilgan hududning tabiiy iqlim sharoitlari, tadqiqot obyekti va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektining geomorfologiyasi, tuproq hosil qiluvchi jinlar, iqlimi, relyefi, o'simliklari tadqiqot olib borilgan joy va qo'llanilgan uslublarning to'g'risida keltirilgan. Izlanishlar davomida dala va laboratoriya va kameral sharoitida tuproqshunoslik va mikrobiologiya sohasida umumqabul qilingan standart uslublardan foydalanilganligi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Chirchiq-Ohangaron havzasida tarqalgan eroziyaga uchragan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarining morfologik, kimyoviy, umumfizikaviy xossalari”** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot hududi tuproqlarining morfologik ko'rsatkichlari, umumiy fizikaviy xossalari va suv fizikaviy xossalari, agrokimyoviy va biologik xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Laboratoriya sharoitida g'ozani o'sib rivojlanishiga ma'danli va biologik o'g'itlarni qo'llashni ta'sirini tadqiqot hududida tarqalgan kuchsiz, o'rtacha eroziyaga uchragan yuvilib to'plangan tuproqlarda ta'siri o'rganilgan. Ifodolovchi tuproqning, hajm, solishtirma massasi va g'ovakligi foizlarda ifodalanadi. Eroziyaga uchragan tipik bo'z tuproqlarning mexanik tarkibi o'rta va og'ir qumoqli. Tuproqning mexanik tarkibiga eroziya jarayonlarining ta'siri tuproqdagi zarralar yuvilish hisobiga og'irlashgani kuzatildi. Olingan natijalarning ko'rsatishicha kuchsiz eroziyaga uchragan tuproqlarda haydov qatlamida 49,3% o'rtacha eroziyaga uchragan tuproqlarda, yuvilib to'plangan tuproqlarda 52% ni tashkil etdi. Tuproqning mexanik tarkibiga uning deyarli barcha xossalari (kimyoviy, agrokimyoviy va agrofizikaviy xossalari) ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qiyalikning turli qismlarda shakillangan tipik bo'z tuproqlarning mexanik tarkibi tuproqlarning eroziyalanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qiyalik yon bag'irlarining ancha tik qismlarining (K-2,4,6) yemirilgan tuproqlarida fizik loy miqdorining sezilarli kamayishi ko'zga tashlanadi, yuvilib keltirilganda esa, aksincha ko'paygan.

Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, qiyalikdagi jo'yaklardagi tezlashgan oqim natijasida tuproq tarkibidagi chirindiga boy tuproqni mayda zarrachalari yuvilib, pastki qiyalik etagiga yig'iladi, shuning uchun kesma-3, 7 dagi tuproqlar chirindiga boy tuproqlar mexanik tarkibi biroz og'irlashgan. Demak sug'orish eroziyasi jarayonlari ta'sirida qiyalikdagi yemirilgan tuproqlarning keskin o'zgarishi, tuproqlarning mexanik tarkibining yengilashuvi, loyqa, mayda chang kamayib ketishi, yirik-lyossimon chang ko'payishi sodir bo'lgan, oqizib keltirilgan tuproqda mexanik tarkibi og'irlashuvi, qo'yi qatlamlarda loyqa va qum miqdorini ozgina ko'payishi sodir bo'lgan.

Irrigatsiya eroziyasiga uchragan tipik bo'z tuproqlar gumus miqdorining tahlillariga ko'ra, kuchsiz eroziyaga uchragan (kesma-1) tuproq 0-25 sm qatlamida 0,89 % qiyalikning o'rta joyiga joylashgan (kesma-2,6) kesmalarni yuqori

haydalma qavatida gumus miqdori 0,67-0,82 % gacha kamaygan. Shu borada tuproq tarkibidagi oziqa moddalar (NPK) ham eroziya tufayli kamaygan. Tadqiqotlarimiz davomida kuchsiz eroziyaga uchragan tipik bo'z tuproqning dala nam sig'imi 50 sm qatlamida suv zaxirasini natijalari 257,6/ga teng. Tuproq namligini aniqlash dala sharoitida har bir ma'lum holatda tuproqdagi suv zaxirasini belgilash maqsadida o'rganilgan. Tajriba natijalariga ko'ra, dala nam sig'imi tuproq og'irligiga nisbatan 0-30 sm da 20,05 % tashkil etgan. 30-50 sm da 9,63 %, namlikni sug'orishdan keyin tashkil etgan. Tuproq massasiga nisbatan mutanosib holda 25-26 % va 12.80 % ni tashkil etgan. Bir gektar yerga to'g'ri keladigan namlik miqdorini topish uchun S.I. Dolgov uslubidan foydalanib quyidagi natijalarga ega bo'ldik. Suv miqdorining mm hisobida 0-30 sm da 75.78, 30-50 sm da 25,76 mm o'rgandik. 1 gektar tuproqdagi suv zaxirasi yuqoridagi qatlamlar bo'yicha mutanosib holda 757,8 m³/ga, 257,6 m³/ga ga teng. Demak suv me'yori sug'orishdan so'ng ildiz qatlamlarida to'yinmagan miqdorda kuzatildi. Suv zaxirasi aniqlangan holatiga ko'ra uning qurishiga, sug'orishga bo'lgan talabiga tuproqqa ishlov berish muddatini boshlanishini boshqarish mumkin. Olingan nuqtalarining barchasida haydov qatlamida namlikning keskin kamayganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birgalikda mexanik tarkibi yengil bo'lgan ayrim kesmalarda namlikning kam bo'lishi kuzatildi.


Irrigatsiya eroziyasi tuproqning qiyaligi har hil elementlarda suv o'tkazuvchanlik tezligi turlicha bo'lganligini kuzatdik (1-rasm).

Ma'lumotlarga ko'ra kuchsiz eroziyaga uchragan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda suv o'tkazuvchanlik tajribaning boshida birinchi soatlarda kuzatilganda shimilish uch soatgacha, filtratsiya jarayoni to'rtinchi soatda kuzatildi va bu qonuniyat tajribaning oxirgacha ya'ni yetti soatgacha olib borildi. Shunga ko'ra suv o'tkazuvchanlik nazorat variantida 3,84 mm/min dan 1,69 mm/min gacha filtratsiya suv miqdori 1,91 ml /min ga teng bo'ldi. Tuproqning suvni ushlab turish qobiliyati tuproqning muhim xossalaridan biri bo'lib, suvni oqib ketishdan saqlab, namni ushlab tura olish qobiliyati hisoblanadi. Variantlar bo'yicha ham suv o'tkazuvchanlik borasida kuzatishlar olib borilgan.

Eroziyaga uchragan tipik bo'z tuproqlari sharoitida kuchsiz eroziyaga uchragan tuproqlarni Fon+gumat-Na variantlarida tuproqning suv o'tkazuvchanligini kuzatdik. Tajriba olib borilgan dala tuprog'i mexanik tarkibi jihatdan o'rta qumoq. Ushbu rasmdagi ma'lumotlarni atroflicha tahlil qilnadigan bo'lsak, suv o'tkazuvchanlik tajribaning birinchi soatlarda kuzatilganda tezligi 1 soatda kuzatildi, shimilish ikki soatda, filtratsiya jarayoni uchinchi soatda kuzatildi. Fon+Rizokom-1 variantlarda xam nazoratga nisbatan suv o'tkazuvchanlik tezligi bir muncha yuqori ekanligi filtratsiya jarayoni uchinchi soatda kuzatildi va shunga ko'ra suv o'tkazuvchanlik tezligi 12,73 mm/min dan 5,52 mm/min gacha, filtratsiya suv 2,54 mm/min ga teng bo'ldi. N.Kachinskiy klassifikatsiyasidan foydalanildi va bunda tuproq qoniarli suv o'tkazuvchanligiga ega ekanligi aniqlandi. Tuproqda suv o'tkazuvchanlik qobiliyati irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari kompleksini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot hududida tarqalgan kuchsiz, o'rtacha eroziyaga uchragan, yuvilib

to'plangan tuproqlar sharoitida g'ovaning o'sib rivojlanishiga ma'danli o'g'itlar, gumat natriy, Rizakom-1 va parranda qiyini ta'siri 30 kun qo'llash davomida laboratoriya sharoitida o'rganildi. Buning uchun har bir tuvakchalar nazorat Rizokom-1, gumat natriy parranda qiyi bo'yicha joylashtirildi. Unib chiqqandan boshlab har 10 kunda g'ovaning o'sishi variantlar bo'yicha kuzatildi. Barcha variantlarda g'ovaning o'sishi Rizokom-1 da eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldik.



1-rasm. Kuchsiz eroziyaga uchragan, sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning suv o'tkazuvchanligi, mm/min

Dissertatsiyaning “Eroziyaga uchragan sug'oriladigan tipik bo'z tuproq xossalariga ma'danli va biologik o'g'itlarning ta'siri” deb nomlangan to'rtinchi bobida tajriba olib borilgan irrigatsiya eroziyaga uchragan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning mikrobiologik xossalari va fermentativ faolligi haqida natijalar keltirilgan. Mikrobiologik ko'rsatkichlari bo'yicha ammonifikatorlar kuchsiz eroziyaga uchragan tipik bo'z tuproqlarda 2.15×10^8 nazoratga nisbatan 1.5×10^8 fosfor parchalovchi bakteriyalar soni 9.0×10^6 , nazoratga nisbatan 1.5×10^6 , oligonitrofillar, mikromitsetlar soni bo'yicha ham boshqa variantlarga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etdi.

O'rganilgan hudud tuproqlarida fermentlarning faolligi mavsumiy dinamikasini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra katalaza, invertaza bahor, kuz faslarida nazorat variantiga nisbatan Fon+Rizokom-1, Fon+Gumat-Na, Fon+parranda qiyi variantlarida nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi. Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar ta'minlanish darajasiga ko'ra gumus miqdori kam, harakatchan fosfor miqdori bo'yicha juda yuqori va almashinuvchan kaliy miqdori bo'yicha kam ta'minlangan tuproqlar jumlasiga kirishi aniqlandi (1-jadval). Keltirilgan raqamlardan ko'rinib turibdiki, II- va III-variantda tuproqda gumus modda to'planishi mikroorganizmlarning ish faoliyatiga bog'liq.

Natijada tuproqning g'ovakligi, havo va suv o'tkazuvchanligi hamda uning fizik, kimyoviy xususiyatlari nazorat variantga qaraganda o'zgarganligini ko'rish bilan birga undagi mikroorganizmlar o'sib, rivojlanib o'g'itlarni qayta ishlashda bu organizmlarning o'simliklarga kerakli oziq moddalar yetkazib berishda

mikroorganizmlarning ulkan hissa qo‘shganini ham kuzatish mumkin. Rizokom-1, gummat-Na, parranda qiyi solingan tuproqlarda mikroorganizmlarning rivojlanishi shak shubhasizdir.

1-jadval

Sug‘oriladigan turli darajada eroziyaga uchragan tipik bo‘z tuproqlarda gumus, azot miqdori va mikroorganizmlar faolligi

Variantlar	Gumus miqdori % hisobida	Umumiy azot % hisobida	Mikroorganizmlarning turlari KXB				
			Ammonifikatorlar	Fosfor parchalovchi bakteriyalar	Oligonirofillar	Mikro-mitsetlar	Aktivitetlar
Kuchsiz eroziyaga uchragan tuproq							
G‘o‘za nazorat NPK	0.738	0.059	1.5×10^8	1.5×10^6	1.0×10^6	$3. \times 10^4$	3×10^4
G‘o‘za NPK+Rizokom-1	0.886	0.061	2.5×10^8	9×10^6	5.2×10^5	9×10^4	1.8×10^5
G‘o‘za NPK +Gumat-Na	0.883	0.072	$2,2 \times 10^8$	1.0×10^7	1.5×10^6	3.0×10^4	1.0×10^5
G‘o‘za NPK+Parranda qiyi	0.738	0.061	2.0×10^8	6×10^5	2.7×10^5	6×10^4	3×10^4
O‘rtacha eroziyaga uchragan tuproq							
G‘o‘za nazorat NPK	0,760	0,058	$3,1 \times 10^7$	3×10^6	$1,8 \times 10^5$	$4,5 \times 10^4$	$1,0 \times 10^5$
G‘o‘za NPK+Rizokom-1	0,949	0,065	$3,7 \times 10^7$	$1,9 \times 10^7$	$1,0 \times 10^6$	$7,5 \times 10^4$	6×10^4
G‘o‘za NPK+Gumat-Na	0,822	0,040	$2,7 \times 10^7$	$7,5 \times 10^6$	$1,5 \times 10^6$	9×10^4	3×10^4
G‘o‘za NPK+Parranda qiyi	0,738	0,032	$2,2 \times 10^7$	$3,3 \times 10^6$	$7,5 \times 10^6$	$1,2 \times 10^5$	6×10^4
Yuvilib to‘plangan							
G‘o‘za nazorat NPK	0,823	0,048	$3,3 \times 10^7$	$3,9 \times 10^6$	$1,3 \times 10^6$	3×10^4	3×10^4
G‘o‘za NPK+ Rizokom-1	0,992	0,055	$3,7 \times 10^7$	$2,2 \times 10^7$	$1,0 \times 10^6$	6×10^4	$1,5 \times 10^4$
G‘o‘za NPK+Gumat-Na	1,02	0,069	$1,8 \times 10^7$	$1,5 \times 10^5$	$8,2 \times 10^5$	$7,5 \times 10^4$	$1,5 \times 10^4$
G‘o‘za NPK+Parranda qiyi	0,886	0,059	$1,0 \times 10^8$	9×10^6	$9,0 \times 10^5$	3×10^4	$1,5 \times 10^4$

Bu variantda ammonifikatorlar va fosfor parchalovchi bakteriyalar soni ko‘payligini ko‘rish mumkin. 1 g tuproqda mikroorganizmlarning ming donna hujayra hisobida $2,5 \times 10^8$ ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat variantda bu ko‘rsatkichlar $1,5 \times 10^8$ ni tashkil qilgan. Fosfor parchalovchi bakteriyalarning miqdori Rizokom-1 biopreparati qo‘llanilgan variantda kuzatildi ya‘ni 9×10^6 (KXB) koloniya hosil qiluvchi bakteriyalar grammni tashkil etdi. Mikroorganizmlarning ta‘minlanganlik darajasi shkalasi orqali aniqlanganda ta‘minlanganlik darajasi past, o‘rtacha yuvilgan, yuvilib to‘plangan tuproqlarda esa ta‘minlangan ya‘ni meyorida $1,9 \times 10^7$ dan $2,2 \times 10^7$ gacha. Haydalma qatlamida bu jarayonlar albatta mikroorganizmlar faolligi, mahsuli bevosita tuproqda organik moddalarning shakllanishi bilan bog‘liq.


Fermentlar faolligini o‘g‘itlar turiga qarab o‘rganilgan. Fermentlardan katalazaning yuqori faolikka ega ekanligi nazorat variantda qayd etiladi. Uning faolligi bahor faslida kuchayadi, kuzda esa keskin kamayadi. Shu kabi boshqa fermentlar, ya‘ni katalaza mineral o‘g‘itlar ishlatilgan variantlarida kuzda 6,9 ga teng bo‘lsa Fon+Rizokom-1 variantida 16,3 invertazada esa 3,5 nazorat variantda Rizokom-1 qo‘shilgan variantda esa 6,6 ga tengligi kuzatildi (2-jadval).

Keltirilgan raqamlarda ko‘rinib turibdiki, biopreparat parranda qiyi mineral o‘g‘itlar asosida qo‘llanilishi tufayli mikroorganizmlarning ish faoliyatiga bog‘liq ekanligi ko‘rildi. Natijada tuproqning g‘ovakligi, suv o‘tkazuvchanligi hamda

Sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqlarda fermentlar faolligini biooʻgʻitlar tasirida oʻzgarishi

Variantlar	1g tuproqda fermentlar faolligi			
	Katalaza, (0,1nKMnO ₄ /2,5 soat) hisobida		Invertaza (mg glyukoza 1 g tuproqqa nisbatan / 40 soat) hisobida	
	Kuchsiz eroziyaga uchragan			
	bahor	kuz	bahor	Kuz
Gʻoʻza nazorat NPK	7,5	6,9	5,20	3,52
Gʻoʻza NPK+Rizokom-1	17,5	16,3	8,40	6,60
Gʻoʻza NPK+Gumat-Na	19,1	17,3	6,15	4,66
Gʻoʻza-NPK+Parranda qiyi	12,5	10,2	8,20	6,60

uning agrofizikaviy, agrokimyoviy xususiyatlari nazorat variantga qaraganda qisman oʻzgarganligini koʻrish bilan birga oʻsimliklarga kerakli oziq moddalar berishda mikroorganizmlarning ulkan xissasi borligi kuzatilgan. Biz oʻrganayotgan irrigatsiya eroziyasiga uchragan tipik boʻz tuproqlarning unumdorligini oshirish maqsadida olib borilgan dala tajribalarning agrokimyoviy xossalari taʼsirini kuzatdik. Tahlil natijalariga koʻra vegetatsiya davrining oxirida kuchsiz eroziyaga uchragan tuproqlarda nazorat variantda 0,74%, Fon+Rizokom-1 0,88 %, Fon+gumat- Na 0,82 % va Fon+parranda qiyi variantida haydov qatlamida 0,82 %. Oʻrtacha eroziyaga uchragan tuproqlardagi gumus miqdorining koʻrsatkichlari yuqoridagi variantlarga mutanosib holda eng yuqori koʻrsatkich 2 variantda 0,94 % ga teng. Yuvilib toʻplangan tuproqlarda barcha variantlar boʻyicha nisbatan yuqori koʻrsatkichlarga ega boʻlib, 3 variantda 1,01 % tashkil etmoqda (2-rasm).




2-rasm. Kuchsiz eroziyaga uchragan tipik boʻz tuproqlarga biopreparatlarning taʼsiri

“Eroziyaga uchragan tipik boʻz tuproqlarini haydov qatlamida biopreparatlar va organik oʻgʻitning tuproq agregatlarining suvga chidamlilik xususiyati” deb nomlangan boʻlimda tuproqni fizik xossalari tuproqda kechadigan hamma


jarayonlarning ma'lum darajada tavsifini aniqlovchi muhim ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi.

O'simliklarni suv oziqa moddalari va havo bilan ta'minlanishi har tuproqni fizik xossalari bilan bog'liqdir. Ko'p holatlarda fizik xossalar eroziya jarayonini jadalashuvini belgilaydi. Izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, eroziyalangan tuproqlarda eroziya darajasini yana oshishi bilan agregatlarning suvga chidamliligi kamayib boradi (3-rasm) ushbu qonuniyatlar D.G.Vilenskiy usulida o'tkazilgan tajriba shuni ko'rsatdiki, bitta $d=2-3$ mm agregatni parchalanishi uchun kuchsiz eroziyaga uchragan tuproqlarda organomineral va biopreparatlarni ta'sirida Fon+Rizokom-1 biopreparati qo'llanilganda va yuvilib to'plangan tuproqlarda yuqori natijaga ega bo'lib boshqa variantlarga nisbatan 1,75 ml suv, 2,5 ml suv sarflandi.



3-rasm. Eroziyaga uchragan tipik bo'z tuproq agregatlarining suvga chidamlilik holati (2-3 mm bitta agregatni parchalash uchun sarf bo'lgan suv miqdori millilitrda)

Demak, bunda tuproqda gumus miqdori ko'p bo'lsa, tuproqning strukturali holati qanchalik yaxshi bo'lsa, bu tuproqlarning eroziyaga chidamlilik xususiyati yuqori bo'lib, eroziyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazilganda ular hisobga olish mumkin degan xulosaga keldik.



4-rasm. Biopreparat va bioo'g'itlar ta'sirida sug'oriladigan tipik bo'z tuproq umumfizikaviy xossalari o'zgarishi (2019-2021 y.y. o'rta hisobda)

